

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**A.A.Каримов**

Философия калама –рациональная основа средневекового исламского  
мировоззрения..... 203

**D.E.Normatova**

Islom islohhiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar..... 210

**B.E.Xusanov**

Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili..... 215

**N.M.Axmadiyev**

Yoshlarning axloqiy, ma'rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan  
foydanishning ahamiyati..... 220

**N.N.Teshayev**

Fuqarolik jamiyatni rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari ..... 223

**K.G'.Kamolova**

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni ..... 227

**M.M.Qaxxorova, B.Farfiev**

Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari..... 232

**K.U.Sharipova**

Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni..... 240

**S.A.Xayrullayev**

Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari..... 244

**O'.X.Rajabov**

Maslahat – konsensusning sinergetik omili ..... 248

**Sh.T.Abbosova**

Milliy g'oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch ..... 251

---

**SIYOSAT****K.X.Avazov**

Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining  
mazmun-mohiyati..... 254

**A.A.Abdilxamedov**

Huquqbazarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati..... 261

**B.Y.Paluaniyazov**

Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahidlarning namoyon bo'lish  
xususiyatlari..... 265

**U.M.Kuranov**

Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma'nnaviy – ma'rifiy ahamiyati ..... 270

---

**ТАРИХ****Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov,****K.D.Arziyev**

O'zbekistonning Samarcand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv  
ishlari hisoboti..... 275

**М.Х.Исамиддинов**

Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития..... 309

**X.Raxmatillayev**

Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar ..... 314

**F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G'.Rahmatova**

Mustaqillik yillarida Buxoro to'qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari ..... 318

**N.S.Abdullayeva**

Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosi namunalari..... 324

**S.B.Xakimova**

"Xulosat ul-ahvol" asari xususida..... 329

**Ш.Т.Темиров**

Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное  
наследие ..... 332

## ROSSIYA MUZEYLARIDA SAQLANAYOTGAN O'ZBEKISTON MADANIY MEROSI NA'MUNALARI

ОБРАЗЦЫ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА В МУЗЕЯХ РОССИИ

SAMPLES OF THE CULTURAL HERITAGE OF UZBEKISTAN IN MUSEUMS OF  
RUSSIA

Abdullayeva Nigora Sanjarovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup>O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, PhD

### Annotatsiya

Maqolada Rossiya Federatsiyasi muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosi namunalari va ularning tahlili haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan. O'zbekiston madaniy merosi namunalarining Rossiyaga borib qolish tarixi, hozirgi saqlanish holati haqida mulohaza yuritilgan. Moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini saqlanayotgan Rossiyadagi yirik muzeylar, ularning o'rGANILISH tarixi tahlil etilgan.

### Аннотация

В статье описаны и проанализированы образцы культурного наследия Узбекистана, хранящиеся в музеях Российской Федерации. Даны рассуждения об истории попадания в Россию образцов культурного наследия Узбекистана и современное состояние их сохранности. Приведен обзор крупных музеев России, в которых хранятся образцы материальной и духовной культуры, и история их изучения.

### Abstract

The article describes and analyzes samples of the cultural heritage of Uzbekistan stored in museums of the Russian Federation. Discussions are given about the history of samples of the cultural heritage of Uzbekistan coming to Russia and the current state of their preservation. An overview of large museums in Russia is provided, which store samples of material and spiritual culture, and the history of their study.

**Kalit so'zlar:** Rossiya Federatsiyasi, Moskva muzeyi, Rossiya imperiyasi, kashtalar, gilamlar, qo'lyozma manbalar, kulolchilik buyumlari, misgarlik namunalari, kandakorlik buyumlari, zargarlik buyumlari, qimmatbaho qurollar, zarbof to'nlar, dastlabki kolleksiyalar.

**Ключевые слова:** Российская Федерация, Московский музей, Российская империя, вышивки, ковры, рукописные источники, керамика, медные образцы, резьба, ювелирные изделия, драгоценное оружие, украшения, ранние коллекции.

**Key words:** Russian Federation, Moscow Museum, Russian Empire, embroidery, carpets, handwritten sources, ceramics, copper samples, carvings, jewelry, precious weapons, jewelry, early collections.

### KIRISH

O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o'rGANISH va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda.

### Dolzarbliji

Dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonida moddiy va ma'naviy meros namunalarini asrash, saqlash va tadqiq etish davlatlar, millatlar o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilishi muhimligini yana bir bor ko'rsatmoqda. YUNESKO ning Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti (IICAS), Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish markazi (IRCICA) Markaziy Osiy mintaqasi tarixi va ma'naviy merosini tadqiq etish yuzasidan keng ko'lamli izlanishlar olib borayotganligi e'tiborga molikdir.

Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasining ko'plab muzeylarida O'zbekiston madaniy merosi namunalarini saqlanadi. Bu ashayolar va artefaktlar turli yo'llar bilan ushbu muzeylarga borib qolgan. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga harbiy bosqinlari davomida kashtalar, gilamlar, qo'lyozma manbalar, kulolchilik buyumlari, misgarlik namunalari, kandakorlik buyumlari, zargarlik buyumlari, qimmatbaho qurollar, zarbof to'nlar bosqinchilar qo'liga tushadi. Boshqalari esa tarixchi olimlar, ethnograflar va shaxsiy kolleksionerlar tomonidan sotib olinadi. Bir qismi esa amir va xonlar tarafidan imperator hamda uning oilasiga, yuqori davlat amaldorlariga sovg'a tarzida taqdim etilgan. Izlanishlarimiz davomida elchilik aloqalari davrida o'zaro sovg'a almashish amaliyoti mavjudligi, buning natijasida tomonlar bir-birlariga tuhfa tariqasida qimmatbaho, noyob va yagona

## TARIX

nusxada tayyorlangan buyumlar yuborgani ma'lum bo'ldi. Ularning bir qismi bugungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasidagi muzeylarida, ular haqida rasmiy hujjatlar Toshkent, Moskva hamda Sank-Peterburg shaharlariagi turli arxiv fondlarida saqlanib kelmoqda. Muzey ashyolari bilan ishlash ma'lum malaka talab qiladi. Muzey xodimlari hamda muzeishunoslar ashyolarni o'rganishda mazkur soha amaliyotida qabul qilingan an'anaviy uslublarga tayanadilar. Ushbu tadqiqotda esa muzey ashyolarining manbaviy ahamiyati o'rganildi. Bunda dastlab diplomatik tortiqlarga daxldor manbalar bilan birma-bir tanishish zarur [15: 20].

XIX asr oxiri XX asr boshlari, ya'ni Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan vaqtida madaniy merosimizning chet ellarga olib chiqilishi jarayonlarini tahlil qilish, ushbu jarayonga asos bo'lgan tarixiy omillarni aniqlash imkonini beradi.

Maqolada hozirga qadar e'tibordan chetda ayni rakursdan turib Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosining tadqiq etilishi, madaniyatimiz namunalarining tarixiy ildizlariga nazar tashlanadi.

### METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI

Maqolada tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalangan holda, tadqiqot uchun qo'yilgan asosiy maqsad mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Ushbu mavzuga aloqador masalalarni o'rganish borasida xorijlik olimlar M.B.Piotrovskiy, D.Y.Miloserdov, T.Yemelyanenko, S.M.Dudin va O.Klichev tadqiqotlari, [1-9] asosiy ishlar hisoblanadi. Ularda Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O'rta Osiyo madaniy merosi namunalari masalalari ilmiyl tahlil qilingan.

Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosi namunalari haqidagi dastlabki jiddiy ma'lumotlar S.M.Dudin "Ковровые изделия Средней Азии" nomli maqolasida keltirilgan. Ushbu maqolada olim Leningrad etnografiya va antropologiya muzeyida saqlanayotgan gilamlarga, to'qimachilik namunalariga asoslanib fikr bildiradi [1: 71-167].

T.Yemelyanenko mas'ul muharrirligida nashr etilgan "Художественное оружие из собрания Государственного Эрмитажа. Каталог выставки" nomli to'plamda Ermitaj muzeyida saqlanayotgan Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo'qon xonliklari yasalgan badiiy did bilan bezatilgan qurol-yarog'lar haqida bat afsil ma'lumot berilgan [6: 69-99].

S.Yanina, V.N. Kleshinov va A.Ye. Jiravov asosan mintaqamizda zerb etilgan tangalar, ipak hamda qog'oz pullar haqida ma'lumot beradi [16-17]. S.Yanina o'zining "Металлические денежные знаки Хорезмской Советской Народной Республики 1920-1922 гг." nomli maqolasida asosan RF davlat tarix muzeyida saqlanuvchi pullar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, olim Ye.A.Paxomov tomonidan RF davlat tarix muzeyiga taqdim etilgan sharq, jumladan, xonliklar tangalarini ham tadqiq etgan [18: 32-33; 19]. RF davlat tarix muzeyida saqlanuvchi somoniylar davrida zerb etilgan tangalar to'g'risida S.Yanina vafotidan oldin tayyorlagan ammo nashr qilishga fursat bo'lmagan qo'lyozmasida bat afsil hikoya qiladi [19].

Mustaqillik yillarda O.Klichev tomonidan Rossiya-Buxoro munosabatlariiga doir sovg'a buyumlar katalogi tuzib chiqiladi [4]. Ushbu katalog hozirgi kunda Rossiya muzeylarida saqlanuvchi artefaktlar tarixi hamda tarkibi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. O.Klichev tadqiqoti davomida muzeylardan 60 dan ziyod artefaktlar aniqlab ilmiy muomalaga olib kirgan [15: 20]. Tadqiqotching xulosasiga ko'ra, bir necha mingga yaqin muzey eksponatlari orasida ashyolardagi matnlar diplomatik tortiqlarni aniqlashda ko'maklashadi. Epigrafik matn va tamg'alar tortiqlarni tayyorlash jarayoni, bu ishga jalb qilingan usta hunarmand va uni yo'llovchi shaxs to'g'risidagi taxminlarga oydinlik kiritadi [15: 33].

Respublikamizda ushbu masala yuzasidan ahamiyatga molik izlanish F.Abduholiqov rahbarligidagi "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" loyihasi hisoblanadi. Loyiha 60 jiddan iborat bo'lib, shulardan 18 jildi Rossiya muzeylari, kutubxonalari, arxivlari va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanuvchi madaniy meros namunalarimiz haqida bat afsil ma'lumot berilgan. Ushbu loyiha doirasida nashr etilgan Rossiya muzeylaridagi O'zbekiston madaniy merosi to'g'risidagi to'plamlar quyidagilardan iborat: "Собрание Государственного музея Востока (Т. I.)", "Собрание Российского этнографического музея (Т. II.)", "Собрание Государственной Третьяковской галереи (Т. III.)", "Вышивка и ковры Узбекистана в зарубежных коллекциях (Т. IV.)", "Произведения Алишера Навои в шедеврах книжного искусства XV–XVI веков (Из

собрания Российской национальной библиотеки) (Т. V.)”, “Музыкальное наследие Узбекистана в собраниях Российской Федерации (Т. VI.)”, “Собрание Института восточных рукописей Российской Академии наук (Т. VII.)”, “Собрание Государственного Эрмитажа (часть 1) (Т. VIII.)”, “Культурное наследие Узбекистана в музеях Москвы (Т. X.)”, “Собрание Государственного Музея истории религии (Т. XII.)”, “Ковроделие Узбекистана: традиция, сохраненная в веках (Т. XIV.)”, “Собрание Государственного Эрмитажа часть вторая. Искусство Мавераннахра VIII–XV вв (Т. XV.)”, “Культурное наследие Узбекистана. Книжное искусство Мавераннахра XV–XVII вв. (Т. XVII.)”, “Узбекистан на исторических фотографиях XIX – начала XX в. в собраниях российских архивов (Т. XXXVII.)”, “Керамика Узбекистана в собраниях мира (Т. XLIV.)”, “Ювелирные украшения Узбекистана в собраниях мира (Т. XLV)”, “Собрания музеев Республики Татарстан (Т. LVII.)”, “Собрание Государственного Эрмитажа. Дипломатические дары узбекских ханов и этнографическая коллекция (Т. LIX.)” [2; 3; 5; 6; 7]. Yuqoridagi to‘plamlar o‘zbek, rus va ingliz tilida tayyorlanib, har bir eksponatning saqlanuv muassasasidagi tartib raqami, uning sifatli fotosurati va qisqacha tavsifi keltirilgan.

Bu boradagi muxtasar fikrimiz shundan iboratki, hozirga qadar Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O‘zbekiston madaniy merosi namunalari ularning tarkibi, qanday yo‘llar bilan muzey fondlariga tushishi kabi masalalar alohida-alohida mavzular sifatida o‘rganilganligiga qaramasdan, ushbu buyumlardan muzey va kolleksiyalarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy omillar yoritib berilmagan.

### TADQIQOT NATIJALARI

Rossiya Federatsiyasi muzeylarida O‘zbekiston madaniyatiga oid ko‘plab artefaktlar saqlanadi. Ularning aksariyati haqida “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” loyihasi doirasida nashr etilgan 60 jiddan iborat to‘plamning 18 jildida Rossiya muzeylari, kutubxonalari va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanuvchi madaniy meros namunalari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, 2023-yil yanvar oyida ushbu loyiha kiritilmagan 200 dan ortiq O‘zbekiston madaniyatiga oid artefaktlar Stroganov nomidagi Rossiya davlat san’at-sanoat akademiyasida topildi [12]. Bu jihat Rossiya muzeylarida O‘zbekiston madaniyatiga oid hali aniqlanmagan ko‘plab artefaktlar saqlanayotganini anglatadi. Stroganov nomidagi akademiya san’at tarixi va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri Kirill Gavrilinining fikricha, topilmalar, shuningdek, O‘zbekiston bilan bog‘liq barcha artefaktlarni topish va aniqlash bo‘yicha ishlar bir necha oy davom etgan [12].

Ermitaj muzeysi dunyoda noyob muzey ashyolarini o‘zida saqlovchi Qohira, Britaniya, Luvr va Metropoliten muzeylari kabi alohida ahamiyatga egadir. Ayniqsa, O‘rtal Osiyo hunarmandlari tarafidan yasalgan, xonliklar harbiylari tomonidan foydalanilgan qurol-yarog‘lar ushbu muzey fondlarida saqlanuvchi nodir artefaktlar sirasiga kiradi.

XVI-XVII asrlarda O‘rtal Osiyoda hunarmandchilikda qurol ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega bo‘lib, Buxoro, Xiva, Samarcand, Qo‘qon va boshqa shaharlar o‘z mahsulotlari bilan tanilgan edi. Biroq, XVIII asr o‘rtalaridagi o‘zaro to‘qnashuvlar shahar hayotiga og‘ir ta’sir ko‘rsatdi va ushbu asrning o‘rtalarida hunarmandchilikni sezilarli darajada tanazzulga va turg‘unlikka olib keldi, bu esa o‘z navbatida qurol ishlab chiqarishga ham ta’sir qildi. Bu davrda O‘rtal Osiyo xonliklarida muayyan mintaqaviy xususiyatga ega ozgina egilgan tor pichoqli va juda kichik tekis xochli hamda katta boshi biroz orqaga burilgan oddiy tutqichli shamshirlar ishlab chiqarilgan. Ushbu turdag‘i shamshirlarning namunalari Ermitaj muzeysi ekspozitsiyalarida namoyish etilgan [6: 69-99]. Qinning tutqichlari va chap tomoni odatda stingray (skat) terisi bilan, qinning o‘ng tomoni qayin po‘stlog‘i bilan qoplangan [6: 97]. Bu qilichlar ayniqsa Qozog‘istonda keng tarqaldi, shuning uchun ular odatda qirg‘iz (qozoq) qilichlari deb ataladi.

Ermitaj muzeyida O‘zbekiston hududida ishlatilgan qilichlardan tashqari shamshirlar ham saqlanadi. Fors qilichining shamshir turi Markaziy Osiyo mintaqasida katta mashhurlikka erishgandi. Mahalliy shamshirlar Eron namunalariga qaraganda ko‘proq hashamatli bezak bilan ajralib turadi. O‘rtal Osiyo qurollarining eng xarakterli bezaklari, ayniqsa, qini feruza, Buxoro va Xiva qurollarining dastalarini bezashda emal va zarhal kumushdan ham keng foydalanilgan, baldriklar katta kumush lavhalar bilan bezatilgan [6: 96-98].

Mintaqada keng tarqalgan uzun tig‘li qurollarning yana bir turi qilich edi. U Kavkazdan birinchi navbatda tutqichning g‘ilofga joylashishi bilan ajralib turadi. Agar kavkaz tipidagi qilichning dastasi qinning kengaygan og‘ziga boshigacha to‘g‘ri kelsa, u holda O‘rtal Osiyo tipiga bu jihat xos

## TARIX

emas [6: 98]. O'rta Osiyo xalqlari orasida kalta tig'li qurollar orasida Erondan andaza olingen va mahalliy zaminda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan xanjar turi bo'lgan kart (kart – fors tilida pichoq demakdir.) juda mashhur bo'lgan. Aynan shu turdag'i kartlar Ermitaj muzeyida 168-raqam bilan saqlanadi [6: 97-99].

Tatariston Respublikasi Milliy muzeyida O'zbekiston madaniy yodgorliklarining yirik kolleksiyasiga ega. Hozirda Tatariston Respublikasi Milliy muzeyi to'plamida XVIII – XX asrlarga oid o'zbeklar madaniyati va hayotini aks ettiruvchi bir yuz ellikdan ortiq ashyolar jamlangan. Ular orasida quyidagi buyumlar guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) qog'oz va ipak pullar; 2) badiiy metall va zargarlik san'ati; 3) yog'och, o'simlik materiallari va keramikadan tayyorlangan uy-ro'zg'or buyumlari; 4) to'qimachilik – kiyim-kechak, mato namunalari va kashtachilik [3: 38].

Tatariston Respublikasi Milliy muzeyida Turkistondan olib kelingan mis va bronza idishlar – jami 30 dan ortiq buyumlar kolleksiyasi shakllangan. Unda choy va suv uchun mo'ljallangan bezakli ko'zalar, patnislari, yuvinish idishlari, shuningdek, yuzasi bezaksiz qolgan suv saqlash va ovqat pishirishga mo'ljallangan mis idishlar mavjud [3: 39]. Ushbu buyumlarda yasalgan sanasi, hunarmand ustaning nomi qayd etilgan.

Moskvadagi ikki muzey – Davlat tarix muzeyi va Butunrossiya amaliy-bezak va xalq san'ati muzeyida saqlanayotgan O'zbekiston bilan bog'liq kolleksiyalarini birlashtiradi. Kataloglarda taqdim etilgan artefaktlar O'zbekiston badiiy merosining rang-barangligi va boyligini aks ettiruvchi xronologik tasnifi va hunarmandchilik turlari bo'yicha tartibga solingan. Ular orasida Davlat tarix muzeyining to'plamida saqlanayotgan hududning qadimiy sivilizatsiyalarida shakllangan madaniyatini o'zida aks ettiruvchi arxeologik topilmalar alohida e'tiborga molikdir. Butunrossiya amaliy-bezak va xalq san'ati muzeyida esa XX asr 30-yillarining boshida toshkentlik ustalar tomonidan 1925-yilda Parijda joriy etilgan zamonaviy dekorativ va sanoat san'ati xalqaro ko'rgazmasi, 1937-yildagi Parij xalqaro ko'rgazmasi, shuningdek, 1939 yilda o'tkazilgan Nyu-York ko'rgazmalari uchun tayyorlangan O'zbekistonning juda qiziqarli kulolchilik kolleksiysi saqlanadi.

Moskvadagi Davlat tarix muzeyida Xorazm Sovet Xalq Respublikasi davrida muomalada bo'lgan tangalar, ipak va qog'oz pullar saqlanadi. Xorazm Sovet Xalq Respublikasi davrida muomalada bo'lgan tangalar, ipak va qog'oz pullar haqida S.Yanina o'zining 1962-yilda e'lon qilingan "XSXR 1920-1922-yillardagi tanga pullari belgilari" nomli maqolasida ma'lumot berib o'tgan [3: 39].

## XULOSA

Uzoq yillar davomida, turli madaniyatlarning qorishuvi natijasida O'rta Osiyoda shakllangan o'ziga xos madaniyat va yig'ilgan madaniy meros, Yevropaning turli mamlakatlari, jumladan Rossiya madaniy merosga qiziquvchi kishilarni doimo o'ziga jalb qilib kelar edi. Turkistonda ruslar hokimiyyati o'rnatilgach, bu yerga Rossianing turli hududlaridan oddiy aholi bilan bir qatorda olimlar ham kela boshlaydi, natijada xonliklar madaniy merosi namunalari bilan yanada yaqindan tanishish hamda ularni turli yo'llar bilan imperiya markaziga olib ketish boshlanadi. Bu vaziyatda Rossiya orqali Yevropa davlatlari xalqimiz madaniy merosi bilan tanishishiga imkoniyat yuzaga keldi, Rossiya muzeylarining bo'limlari, kolleksiyalari shakllanishi va boyishiga zamin hozirlandi.

Hozirda Rossiya Federatsiyasi muzeylarida saqlanayotgan elchilik sovg'alari, sotib olingen artefaktlar, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanuvchi buyumlar mintaqamiz tarixinining ayrim jihatlarini o'zida aks ettiradi. Tadqiqotchilar uchun qo'lyozma manbalar, arxiv hujjatlari va davriy matbuot ma'lumotlarini o'zaro taqqoslash muhim. Ashyolar oliy maktublar singari tarixiy jarayonning bevosita "guvohi" va "ishtirokchisi" hisoblanadi. Ularning tarixiy voqe'lilik ishtirokchisi sifatida beradigan ma'lumotlari tadqiq etilayotgan masalaga oid qarash va xulosalarning yaxlit bo'lishini ta'minlaydi.

## ADABIYOTLAR RO'TXATI

- Дудин С.М. Ковровые изделия Средней Азии // Сборник Музея антропологии и этнографии. Т. VII. Л., 1928
- Ўзбекистон маданий мероси. Россия этнография музей тўплами. – Тошкент: Silk road media, 2020. Т. 2. – 472 б.
- Ўзбекистон маданий мероси. Татаристон Республикаси музейлари тўпламлари (Россия). – Тошкент: Silk road media, 2022. Т. 57. – 111 б.
- Кличев О.А. Россия-Бухоро муносабатларига доир совға буюмлар каталоги // Каталог. – Бухоро: Дурдона, 2022. – 80 б.

5. Культурное наследие Узбекистана. Музыкальное наследие Узбекистана в собраниях Российской Федерации. – Тошкент: Silk road media, 2020. Т. 6. – 472 б.
6. Культурное наследие Узбекистана. Собрание Института восточных рукописей Российской Академии наук. – Тошкент: Silk road media, 2020. Т. 7. – 480 б.
7. Культурное наследие Узбекистана. Собрание Государственного Эрмитажа. Часть 1. – Тошкент: Silk road media, 2020. Т. 8. – 528 б.
8. Милосердов Д. Ю. Сабли Средней Азии XIX – начала XX вв. (Sabres of Central Asia of the 19 – early 20 centuries) // Тюркология в ИСАА МГУ имени М.В. Ломоносова. 2020. – С. 321-331.
9. Милосердов Д. Ю. Топоры и булавы в ханствах Средней Азии XIX – начала XX века: оружие и символы власти // Вестник МИЦАИ. Вып. 30. Самарканд, 2020. С. 61–70.
10. Художественное оружие из собрания Государственного Эрмитажа. Каталог выставки, СПб, 2010. – 272 с.
11. <https://darakchi.uz/uz/51732>
12. <https://sputniknews.uz/20230110/rossiyada-ozbekistonning-200-dan-ortiq-madaniy-meros-obektlari-topildi-31364257.html>
13. <https://xabar.uz/madaniyat/ozbekiston-madaniy-merosi>
14. <https://www.youtube.com/watch?v=Egbh-rmpxuo>
15. Klichev O. Diplomatik munosabatlarga doir materiallar: Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi elchilik qabullari tarixini o'rganish manbasi (1867-1917 yy.). Tarix fanlari doktori DSc imiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Buxoro, 2023. – 84 b.
16. Янина С. Металлические денежные знаки Хорезмской Советской Народной Республики 1920-1922 гг. Ежегодник Государственного Исторического музея. – М.: 1962. – С. 55-62.
17. Клещинов В.Н., Жиравов А.Е Атлас монет Советского Хорезма 1338-1340 гг.х (1920-1922 гг.). – Москва, 2015. – 80 с.
18. Янина С. Русские и восточные монеты из собрания Е.А. Пахомова, поступившие в Государственный исторический музей // Пленум Института археологии АН СССР. 1966 г. Секция «Нумизматика»: Тезисы докладов. М., 1966. с. 32-33.
19. <https://gerboved.ru/pdf/Molchanov-2004-Yanina-pp126-128.pdf>